

MOHIR DIRIJOR USTALARINING DIRIJORLIK SAN'ATI HAQIDA FIKRLARI

Embergenova Gulayda Aytbaevna

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali

«Vokal» kafedrasi o'qituvchisi

Yo'ldoshev Lochinbek Ergashboy uli

O'zDSMI NF talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14531817>

Annotatsiya. Bu maqolada dirijorlik haqida, dirijorning vazifalari hamda mohir dirijor ustalarining dirijorlik san'ati haqida fikrlari so'z etilgan.

Kalit so'zi: Dirijor, voqiya, kompozitor, musiqa, orkestr, opera, asar, simfoniya, sozanda.

OPINIONS OF MASTER CONDUCTORS ABOUT THE ART OF CONDUCTING

Abstract. This article talks about conducting, the responsibilities of a conductor, as well as the opinions of master conductors about the art of conducting.

Key words: Conductor, event, composer, music, orchestra, opera, work, symphony, musician.

МНЕНИЯ МАСТЕРОВ-ДИРИЖИРОВ ОБ ИСКУССТВЕ ДИРИЖИРОВКИ

Аннотация. В данной статье говорится о дирижировании, обязанностях дирижера, а также мнениях мастеров-дирижеров об искусстве дирижирования.

Ключевые слова: Дирижер, событие, композитор, музыка, оркестр, опера, произведение, симфония, музыкант.

«Dirijor ko'rish va eshitish san'atiga ega bo'lmos'i lozim, u yengil va ayni paytda kuchli bo'lishi darkor, u sozlar kompozitsiyasini, ulaming tabiatini va qamrovini his qilishi, partiturani o'qiy olishi, shular barobarida alohida iste'dod egasi bo'lishi muhim... U yana o'zi va orkestr o'rtasida ko'zga ko'rinnmas aloqa o'rnatilishi uchun kerak bo'lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo'lishi shart. Agar dirijor orkestriga o'z hissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, unda u orkestr ustidan «hukmronlik» qila olmaydi, unga o'z ta'sirini o'tkazishdan mahrum bo'ladi. Bu holda u orkestrning dirijori emas, balki oddiygina «takt uruvchi»ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman taktni to'g'ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!» Gektor Berlioz.

«Ko'p yillar avval, sokin qish oqshomida, konsertdan so'ng Strasburg ko'chalarida kezib yurgan edim. Konsertdan olgan taassurotlarim ta'sirida men xuddi sarmast odamdek, hozirgina Brams simfoniyasini kashf etib bergen dirijor mahoratiga tan berib, sayr qilishda davom etdim. Zaldan chiqib kelayotgan odamlar orasidan o'tar ekanman, men keyinchalik ham unuta olmagan suhbatni eshitib qoldim:

—Ajoyib konsert, - dedi kimdir yoqimsiz ovoz bilan.

—Bo'lman gap! - deb javob berdi o'ziga haddan ziyod ishongan kishining ovozi. Uning ovozidagi ishonch meni joyimga mixlab qo'ydi. Orkestr ajoyib. Biroq nima uchun uning oldida doimo dirijor qaqqayib turishi meni taajjublantiradi.

—Men ham Brams simfoniyasi yangragan paytda faqat shu haqda o'yladim, - deya kinoya bilan javob berdi yoqimsiz ovoz».

Taniqli dirijor Shari Myunsh o‘zining «Men dirijorman» kitobini shunday boshlaydi. O‘sha paytlarda yosh sozanda bolgan Shari Myunshning achchiqlanishiga sabab bo‘lgan ushbu suhbatda berilgan savollar vaqtı-vaqtı bilan boshqa tinglovchilarda ham tug‘ilib tursa ajab emas.

Haqiqatan ham, frak kiyib, orkestr tepasida turgan va musiqa yangrayotgan bir paytda qo‘llarini silkitib turgan odamning haqiqiy roli nimadan iborat?

«Dirijor» so‘zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: nemislar «Dirident», italyanlar «Diridente», fransuzlar «Shef orkestre», inglizlar «Konduktor» deyidilar.

Har qaysi tilda ham bu so‘z rahbar, boshliq, direktor ma‘nosini anglatadi. Shunday qilib, dirijor bu - orkestr jamoasining rahbaridir. Uning asosiy vazifasi — bu jamoaning hayoti faol va yaxshi tashkillashtirilgan bo‘lishini nazorat qilishdan iborat. Dirijor sozandalar musiqiy asarni uyg‘unlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab, birga tugatishlari, o‘z cholg‘ularini bir maromda chalishlari, pauzalarni vaqtida ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta‘minlaydi. Dirijor sozandalar ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirishi, ularni ijroga yo‘naltirish uchun belgi berishi lozim.

Darvoqe, uzoq vaqt davomida ko‘pchilik, dirijor vazifasi faqat orkestrning yagona ritmdagi ijrosini ta‘minlashdan iborat, deb tushunar edi. Aslida esa dirijorlik kasbi juda murakkab va qiyindir. U juda katta aqliy va asabiy mehnat, doimiy jismoniy quvvat talab qiladi. Demak, dirijor mustahkam salomatlikka va chidam hamda bardoshga ega bo‘lishi zarur. Uning uchun zarur bo‘lgan o‘zini qo‘lga ola bilish xususiyati ham salomatlik va asab tizimining ahvoliga bog‘liq.

Dirijor 100 dan ortiq musiqachilar faoliyatining asosiy muvofiqlashtiruvchisidir. Uning roli qisman rejissor roliga o‘xshab ketadi. Rejissor — teatrda sahna asarining badiiy rahbari, spektaklni tayyorlash borasidagi barcha ishlarning boshini birlashtirib turadi. Dirijorni ham bevosita orkestrning rejissori deb qarash mumkin.

Lev Tolstoyning «San‘at o‘zi nima?» deb nomlangan mashhur maqolasida shunday so‘zlar bor: «San‘atning faoliyati — bir marotaba boshdan kechirgan hissiyotni o‘zida tiklab, so‘z orqali ifoda etilgan harakat, bo‘yoq, tovushlar, timsollar yordamida ushbu hissiyotni boshqalar ham boshdan kechira oladigan tarzda yetkazib berishdan iborat.

San‘at — bu insonga xos shunday faoliyat turiki, uning vositasida bir inson o‘z boshidan kechirayotgan hissiyotlarni tashqi belgilar orqali boshqalarga yetkazadi, ular esa bu hissiyotni o‘z qalblariga ko‘chiradilar. dildan his etadilar». Bu e‘tirof dirijorlik san‘atiga bevosita taalluqlidir. Bunda dirijorning emotsiyonal ta‘sir kuchi, uning boshqalarga hissiyotlarni yetkaza bilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, u o‘z hissiyoti bilan orkestrni rom etishi, so‘ng esa u bilan birga tinglovchilarni sehrlab qo‘yishi darkor. Aynan emotsiyonal ta‘sir ko‘rsata olish xususiyati ko‘p jihatdan dirijorning iste‘dodi, uning artistlik mahorati va ishi sifatini belgilaydi. Boshqalarga o‘z hissiyotini yetkaza bilish qobiliyati dirijor ijodining mustaqilligi, qolaversa, ilhom belgisidir. Tom ma‘nodagi ilhom - bu emotsiyonal samimiylig, chuqur intellekt, san‘atkorona temperament, idrok, erkinlik va intizom, o‘zini boshqarish, yuksak mahorat, va nihoyat, bu haqiqiy yorqin iste‘dod hamda aqliy mehnat demakdir. Shu o‘rinda ajoyib dirijor A. M. Pazovskiyning «Dirijor qaydlari» kitobidan Artur Toskanini haqidagi quyidagi mulohazalarini keltirish joiz:

«Shaxsan mening fikrimcha, Arturo Toskanini zamonamiz dirijorlik san‘atining eng yuksak cho‘qqisiga erishgan insondir. Uning daholigi, ulkan iroda kuchi, romantik insonga xos individuallik va hissiyotchanligi, muallif matnini yorqin va o‘ziga xos tarzda o‘qiy bilishi, o‘zining

artistlik qobiliyatini kompozitor shaxsiyati va musiqasi bilan uyg‘unlashtira olishi, bu musiqaning obrazliligini yanada chuqurlashtirib, uning shaklini kamol toptirishdan iboratdir».

Shu bois dirijorning o‘zi, avvalo, musiqiy asarning g‘oya va mohiyatini chuqur anglashi, shundan so‘nggina uni orkestrga yetkazib, musiqachilar uning maqsadlarini amalga oshirishlariga erishishi lozim. Dirijor partiturasidagi unsiz nota belgilariga hayot ato etishi lozim. Bunda u musiqani to‘g‘ri talqin etishi zarur. O‘z ishini yaxshi bilmaydigan yoki iste‘dodsiz dirijor tomoshabin oldida, hattoki eng ajoyib musiqiy asarni ham barbod qilishi mumkin. Ayniqsa, asar yangi, hali ko‘pchilikka notanish bo‘lsa. Shuning uchun yangi asarni ijro etishda dirijor juda ehtiyyot bo‘lishi kerak. Chunki uni avval eshitmagan tinglovchi dirijor xatolarini bastakorniki deb o‘ylashi mumkin.

Albatta, har qanday eng mahoratlari, yuksak iqtidor sohibi bo‘lgan dirijor ham yomon musiqani yaxshi qilolmaydi. Biroq musiqiy asarning noyob tomonlarini oolib berish, yoki muallif g‘oyasini buzib ko‘rsatgan holda, bunday xususiyatlarni yashirish - faqat dirijorga bog‘liq. Shu bois Rimskiy-Korsakovning «Dirijorlik – qorong‘u ish» degan iborasi qaysidir ma‘noda shu kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Garchi o‘sha paytlardayoq Rimskiy-Korsakovga javoban Ippolitov-Ivanov «Bu ish faqat dirijorlik texnikasi asoslari bilan tanish bo‘lmaganlargagina «qorong‘u ekanligini» aytgan bo‘lsa-da, bunday asoslarni nazariy jihatdan ishlab chiqish ishi to‘liq yakunlangan deyish qiyin. Barcha musiqachilar kabi, dirijor ham musiqaning elementar nazariyasini, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlilini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek, u inson ovozi haqida umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, cholg‘ushunoslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerakli sohalardan bohabar bo‘lmog‘i lozim.

REFERENCES

1. Ergash Toshmatov “DIRIJORLIK” Xalq ijodiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini uchun darslik O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI TOSHKENT – 2008-yil. 9-10-11 betlar.
2. Моянов Й. Д. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ: Моянов Йқласбай Жийенбаевич Ўзбекистон Давлат санъат вамаданият институти Нукус филиали, «халқ ижодиёти» кафедраси в. в. б доценти. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 5.
3. Moyanov I. TRAINING AND DEVELOPMENT OF ART PERSONNEL //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 65-69.
4. Jiyenbaevich M. I. The evolution of music pedagogy of the karakalpak people: Historical and theoretical aspects //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 27-32.
5. Jiyenbaevich M. I. Competence-based approach in higher musical and professional education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 42-47.